



ILK O'RTA ASR SHAHARLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Porsoxonov Saidmurodxon Husanxonovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar shaharlarining vujudga kelishi tarixi, ilk o'rta asr shaharlarida vujudga kelgan ko'shk, qasr, qo'rg'on, qo'rg'oncha nomlari bilan atalgan istehkomli turar joylarning qad ko'tarishi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada ilk o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan, Vatanimiz madaniy o'lkalarida joylashgan ayrim shaharlarning topografiyasi, vujudga kelish tarixi, me'morchiligi xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qishloq hokimi, ijtimoiy tabaqalar, me'morchilik xususiyatlari, ko'shk, qasr, qo'rg'on, qo'rg'oncha, shahriston, rabot, ark.

Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega bo'lib, o'tmishda Turon, Turkiston Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan. Bu mamlakatning va o'z mehnati bilan uni obod etgan o'zbek xalqining o'tmishi g'oyat qiziqarli va ibratlidir. Har bir davr o'z ahamiyati va dolzarb mavzularni o'zida jamlagan yangiliklari bilan qiziqarli tarixni yuzaga chiqaradi. Ayni shu tarixni ma'lum bir davri, ya'ni ilk o'rta asrlar ham bunday ahamiyatli jihatlardan mustasno emas.

Ilk o'rta asrlarda o'lkamizdagi jarayonlar hamda ularning aholining hayotiga ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak V-VII asrlarda O'rta Osiyoda, bir tomondan, mulkdorlik munosabatlarining o'rnatilishi, ikkinchi tomondan, ko'chmanchi chorvadorlarning beto'xtov shiddat bilan kirib kelishi oqibatida yuzaga kelgan o'ta murakkab ham siyosiy, ham ijtimoiy vaziyat mamlakat obodonchiligi, xo'jalikning ravnaqi, shahar va qishloqlarning qiyofasi va aholisining turmush tarzi holatiga jiddiy tasir ko'rsatdi. Avvalombor, chorvadorlarning siljishi davrida dashtliklarga



tutashgan Xorazm, Toshkent, Buxoro, va Qashqadaryo kabi dehqonchilik maydonlari oyoq osti qilinib, ko'pgina shahar va qishloqlar vayron etildi. Xo'jalik rivojiga zarba berilib, savdo-sotiq ishlari tanazzulga yuz tutdi[1]. Biroq avval Eftallar davlati, so'ngra Turk xoqonligi kabi ikki yirik davlatlar hukmronligi qaror topgach, yuzaga kelgan ma'lum darajadagi osoyishtalik davrlarida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yana tadrijiy taraqqiyot yo'liga tushib oladi.

Ko'shk, qasr va qo'rg'onlar koproq yirik sug'orish shahobchalari boshida, markaziy shaharlarning tevarak-atrofida hamda dehqonchilik vohalari chegaralari bo'ylab joylashgan edi. Mayda qo'rg'onchalar esa suv chiqarilib, obod etilgan vohalar boylab katta kichik qalalar tevarak-atrofida qad kotargan edi. Masalan, VI-VIII asrlarda qadimgi Xorazmning Burgutqala mavzeida yuzga yaqin ko'shk va qasrli-qo'rg'onlar bo'lib, bular bir-biridan yuz-ikki yuz metr masofada joylashgan edi[3].

Yozma manbalarda qayd etilishicha, Buxoro shahrining faqat uchta sug'orish tarmoqlari boylab 4 ming ta qasr qad ko'targan. Ko'shk va qasrli qo'rg'onlarda zodogon dehqonlar, qo'rg'onchalarda esa ziroatkor mehnatkash aholi istiqomat qilgan va dushmandan o'zini mudofaa etgan. Shubhasiz, ilk o'rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozasi bilan qurilgan qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan[3].

Bu davr shaharsozlik jihatlari va uning elementlari xususida o'z fikr mulohazalarini to'laqonli bayon etgan olimlarimiz safiga akademik Anatoliy Sagdullayev va professor Bahodir Eshov kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, Sh. Shaydullayevning "O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari" mavzusidagi dissertatsiyasida mintaqada shakllangan davlat boshqaruvining o'ziga xos jihatlari, O'rta Osiyoda jamoalarning paydo bo'lishi va ularning rivojlanish bosqichlari, ilk sinfiy jamiyat belgilarining moddiy madaniyat yodgorliklarida aks etishi, O'zbekiston hududida ilk



davlatlarning paydo bo'lish jarayonidagi shart - sharoitlar va omillar, ilk davlatchilik belgilarining arxeologiya manbalarida namoyon bo'lishi, ilk davlatlar tipologiyasi, davlatchilik rivojida din va diniy qarashlarning ahamiyati kabi masalalar borasida ilmiy mulohazalar keltirilgan[4].

A.S.Sagdullayev va O'.Mavlonovlar tomonidan yozilgan "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrlardan XIX asrning o'rtalariga qadar)" nomli o'quv qo'llanmada esa boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va hududiy funksiyalari, davlatchilikning ilk bosqichlaridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davrda davlatchilikning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari, davlat boshqaruvining mazmun va mohiyatlari ochib berilgan[2].

Tarixdan ma'lumkin, VI-VII asrlarda, bir tomondan, shahar aholisining ortib, uning gavjumlashuvi, ikkinchi tomondan, hunarmandchilik, savdo-sotiqning tobora kengayib borishi bilan shaharlar atrofi o'zlashtirilib, obod etiladi. Natijada ayrim markaziy shaharlarning tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzolari paydo boladi. Garchi mudofaa devorlari bilan o'ralmagan bu istehkomsiz mavzolar manbalarda rabad yoki rabot, yani, tashqi shahar nomi bilan tilga olinadi. Keyinchalik rabotlar ham alohida devorlar bilan o'rab olinadi.

Rabotlarda hunarmandchilik mahallalardan tashqari savdogarlar, o'zga yurtlardan kelgan musofirlar uchun karvonsaroy, bozor, ibodatxona va dahmalar qad ko'tarishi bilan ilk o'rta asrlarda shahar uch qismli bo'lib qoladi. Uning podshoh qasri joylashgan qismi koh yoki ark, ichki shahar shahriston deb yuritiladi[5]. Shaharning uchala qismi alohida-alohida devorlar bilan o'rab olinadi. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan. Manbalarda tarif etilishicha, VII asrda Buxoro besh qismdan iborat bo'lib, u besh qator devorlar halqasi bilan o'ralgan. Shahar o'rtasidan oqib o'tgan anhor handak vazifasini bajargan.

Mintaqaning, jumladan, O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davriga oid bo'lgan davlatchilik tarixiga nazar solsak, bu davrda ko'plab mayda va yirik davlatlarning shakllanishi hamda ularning tarix sahnasidan ketishi bilan birga o'ziga xos iz



qoldirib ketganligining guvohi bo'lamiz. Ilk o'rta asrlar davrida qadimgi O'zbekiston hududlariga turli xalqlarning kirib kelishi davom etdi. V asrning birinchi choragida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali ko'chmanchi aholi kidariylar (yuechji yoki toxarlarning avlodi) kirib keladi. Ularga Kidar ismli hukmdor yo'l boshchilik qilgani uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi.

Ta'kidlash lozimki, milodning IV-V asrlari O'rta Osiyo qadimgi tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyoning janubida uning tarkibidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi[2].

Ilk o'rta asrlarda mintaqada sug'orish inshootlari takomillashib, yangi-yangi yerlar o'zlashtiriladi. O'zlashtirilgan yerlarda, yirik sug'orish inshootlari boshida, markaziy shaharlarning atroflarida, dehqonchilik vohalarining chegaralarida qo'rg'onlar, qasrlar va istehkomlar qad ko'taradi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida bir qator davlat uyushmalari yuzaga kelgan bo'lib, mintaqadagi boshqaruv tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, O'rta Osiyoning Turk xoqonligi tarkibida bo'lishi o'sha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bepoyon dasht va cho'l hududlarida, serhosil va sersuv vohalarda tashkil topgan ulkan davlat birlashmalari kattagina hududlardagi shaharlar, hunarmandchilik, madaniyat, savdo-sotiq va o'zaro aloqalarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent. 2007. 340-b.
2. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi, I kitob [Matn]. Toshkent. 2021. 624-b.
3. Bahodir Eshov. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent: 2014. 281-b.



4. Shaydullayev Sh. “O’zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo’lishi va rivojlanish bosqichlari (Baqriya misolida)” Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: 2009. 79-80-b.
5. www.wikipedia.org. internet sayti